

ZAMONAVIY O’ZBEK OILASIDA AN’ANAVIY VA INNOVATSION TARBIYA USLUBLARINING UYG’UNLIGI

Mamatov Jalolidin Latibjonovich

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy o’zbek oilasida farzand tarbiyasida qo’llanilayotgan an’anaviy va innovatsion uslublar o’zaro uyg’unlashuvi tahlil etiladi. Tarixiy ildizlarga ega bo’lgan milliy qadriyatlar asosida shakllangan an’anaviy tarbiya metodlari bugungi globallashuv davrida zamonaviy texnologiyalar va innovatsion pedagogik yondashuвлar bilan birgalikda qo’llanishi mumkinligi ilmiy asoslanadi. Maqolada oilaning tarbiya institutlari tizimidagi o’rni, ota-onalarning pedagogik madaniyati va ta’lim bilan uzviy aloqasi yoritiladi. An’anaviylik va innovatsionlik uyg’unligini ta’minalash orqali bolalarda ijtimoiy ong, milliy g’urur va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari to’g’risida so’z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *oila, an’anaviy tarbiya, innovatsion uslublar, milliy qadriyatlar, pedagogik yondashuv, zamonaviylik, tarbiya tizimi*

Oila jamiyatning eng kichik, ammo eng muhim ijtimoiy institutidir. Unda farzandlar dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, milliy g’ururi va hayotga bo’lgan munosabati shakllanadi. O’zbek xalqida qadimdan oilaviy tarbiya muhim o’rin egallagan bo’lib, ota-onalar tomonidan asrlar davomida shakllanib kelgan urf-odatlar, axloqiy me’yorlar va didaktik qadriyatlar orqali bolaga hayotiy saboqlar berilgan. Bugungi kunda esa bu qadriyatlar globallashuv, raqamli texnologiyalar, ommaviy axborot vositalari va ta’limda yuz berayotgan innovatsion o’zgarishlar bilan to‘qnash kelmoqda.

1. An’anaviy tarbiya uslublari va ularning ahamiyati

O’zbek oilasida farzand tarbiyasining asosiy negizi mehr-muhabbat, hurmat, kattalarga itoat, halollik, mehnatsevarlik va sabr-toqat kabi axloqiy qadriyatlarga tayangan. Bu qadriyatlar nafaqat og’zaki nasihatlar orqali, balki amaliy hayotda ota-onaning shaxsiy namunasi orqali berilgan. “Yaxshi bola ko’rganidan” degan maqol aynan shu tarbiyaviy tamoyilga asoslanadi. An’anaviy usullar orqali bola hayotiy tajriba orttiradi, milliylik va oilaparvarlik ruhida kamol topadi.

2. Innovatsion tarbiya yondashuвлari

Zamonaviy ta’lim va tarbiya jarayonida bolalarning shaxsiy qiziqishlari, individual ehtiyojlari va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda yangi metodlar, interaktiv vositalar va texnologik imkoniyatlardan foydalanilmoqda. Bu yondashuвлar bolalarda tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, ijodiylilik va muloqot madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, mediatexnologiyalardan foydalangan holda ota-onalar bolaga mos o’yinlar, videoedarslar yoki rivojlantiruvchi dasturlar orqali ta’sir ko’rsatishi mumkin.

3. Uyg’unlik zarurati va amaliy yechimlar

Bugungi o’zbek oilasida tarbiya samarasini oshirish uchun an’naviy va innovatsion yondashuvlarni integratsiyalash zarurati ortmoqda. Bu jarayonda ota-onalar o’zlarining milliy qadriyatlar asosida shakllangan tarbiyaviy ko’nikmalarini zamonaviy bilimlar bilan boyitishi, yangi texnologiyalardan to‘g’ri foydalana olishi kerak. Ota-onalar va mакtab o’rtasida yaqin hamkorlik, pedagogik maslahatlar, treninglar, ota-onalar uchun seminarlar tashkil etilishi orqali bu uyg’unlikni mustahkamlash mumkin.

4. O’zbek oilasida tarbiya modelining o’zgarishi va zamonga moslashuvi.

So’nggi yillarda jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy o’zgarishlar, axborot texnologiyalari tez sur’atlarda rivojlanayotgan bir davrda oila institutining tarbiyadagi roli yangi shakllarga ega bo‘lmoqda. Avvalgi avlodlar tajribasiga asoslangan tarbiya uslublari ko‘p hollarda zamonaviy bolalarning ehtiyoj va dunyoqarashlariga mos kelmasligi mumkin. Shu bois, an’naviy yondashuvlar yangilanishni, zamonaviy psixologik-pedagogik g‘oyalar bilan to‘ldirilishni talab qiladi.

Masalan, ilgari bola ko‘proq bo‘ysunish va itoatga o‘rgatilgan bo‘lsa, hozirgi kunda bolani fikr bildirishga, tanqidiy yondashishga, muammoni o‘zi hal qilishga o‘rgatish dolzarb sanaladi. Bu esa ota-onalardan yangi ko’nikmalarni, pedagogik savodxonlikni va doimiy o‘qib-o‘rganishni talab qiladi.

Zamonaviy o’zbek oilasida farzand tarbiyasi jarayonida an’naviy va innovatsion yondashuvlar uyg’unligi zamon talabi hisoblanadi. Bu uyg’unlik nafaqat farzandning har tomonlama barkamol bo‘lib voyaga yetishiga, balki jamiyatda barqarorlik, ma’naviy yuksalish va milliy ongning mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi. An’analar — bu mustahkam asos, innovatsiyalar esa zamon bilan hamnafas rivojlanish vositasi bo‘lib, ular birgalikda zamonaviy oila tarbiyasini yanada mazmunli qiladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Taxonomy of Educational Objectives, Handbook 1: Cognitive Domain 2nd edition Edition, Benjamin S. Bloom
2. Zunnunov A. Hotamov N. Adabiyot o’qitish metodikasi. T., 1992
3. Dolimov S. Ubaydullayev H. Adabiyot o’qitish metodikasi. T., 1967
4. Yo’ldoshev Q. Adabiyot o’qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T., 1996